



UDK:332.2

YER RESURLARIDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISH MASALALARI**Egamova Dilchehra Adizovna**

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti

Ahadova Nilufar Komiljon qizi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

Annotatsiya. *Maqolada respublikada yer resurslarini boshqarishning maqsadi, unga yuklatilgan vazifalar, boshqaruvga asos sifatida qabul qilingan tamoyillar, yer resurslaridan foydalanishni boshqarish funksiyalari tarkibikabi masalalar ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *yer resurslari yer tuzish, innovatsion texnologiyalar, iqtisodiyot tarmoqlari, agrosanoat majmuasi, tamoyillar, boshqaruv funksiyalari.*

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xom ashyoga bo'lgan talabini qondirish bilan birga, eksport salohiyatini mustahkamlashning istiqbolli manbalaridan biri sanaladi.

Shu sababli so'nggi yillarda yer resurslaridan samarali foydalanish, ularni boshqarish tizimini takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda [1].

Respublika iqtisodiyotining tubdan intensiv rivojlanish yo'liga burilishi, uning barcha soxa va tarmoklariga ilmiy-texnika tarakkiyotining jadal tadbik etilishi, yagona iqtisodiy organizm sifatida agrosanoat majmuasining funktsiya qilishi, yer resurslaridan foydalanish va boshqarishda yangi jiddiy yo'nalishlarni talab qiladi. Bunday sharoitda, ayniksa bozor iqtisodiyotisharoitida, yerdan foydalanishni tashqil qilish, rejalashtirish, agrosanoat majmuasining barcha darajasida resurslarni tejamlaydigan texnologiyani joriy etish, yer bilan boglangan sanoat tarmoklarida chikitsiz texnologiyani tadbik etishga muljallangan bo'lishi kerak. Buni amalga oshirish uchun esa yerdan foydalanish iqtisodiyotini, tashqil etish, rejalashtirishning barcha tizimlarini maksadga yunaltirilgan rivojlanishi pirovaddir natijada yer resurslarini boshqarishning yaxlit va samarali tizimini talab qilinadi.

Ma'lumki, har kanday boshqaruv, shu jumladan yer resurslarini boshqarish ham, anik maksadning nazardatutadi. Bunda boshqarishning asosiy maksadi bo'lib - davlatning yagona yer fondini iqtisodiyot tarmoqlarining manfaatini ta'minlash uchun samarali foydalanishni tashkil etish xizmat qiladi. Yer resurslarini boshqarish




jarayonida uning maksadiga mos tarzda qo'yilgan bir qator vazifalar yechiladi. Bizning nazarimizda ularning asosiylari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Tabiat va jamiyat konunlari va ularning rivojlanishi asosida ijtimoiy yer munosabatlarini tartibga solish masalalarini takomillashtirish.
2. Jamiyatning barcha ishlab chikaruvchikuchlarini rivojlanishivajoylashishi uchun eng yaxshisharoittugdirish.
3. Yer resurslari zaxiralarini yer fondi toifalari buyicha zamon va makonda iqtisodiyot tarmoklariga, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va yer uchastkalari mulkdorlariga optimal taksimlash va kayta taksimlash.
4. Yer resurslarini kengaytirilgan takror ishlab chikarishini ta'minlash orqali tuprok unumdorligini yaxshilashini ta'minlash.
5. Xar bir yer uchastkasini uni maksadli birlashtirilishi orqali oqilona va samarali foydalanishini ta'minlash.

Ma'lumki, davlat tomonidan amalga oshiriladigan xar qanday xarakter ma'lum bir me'yorlar negizida amalga oshiriladi. Ushbu me'yorlarning asosini esa tamoyillar tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda yer resurlardan foydalanishni boshqarishning asosi sifatida quyidagi tamoyillarni kuyish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Yer resurslarini boshqarishda siyosiy, iqtisodiy, ekologik va texnologik yondoshuvlarning birligi.
2. Yerdan va boshka tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish masalalarini majmuaviy yechish.
3. Yer resurslaridan foydalanish boshqarishda qishlok xo'jaligining tabiiy moslashuvi jixatidan yerlarni rayonlashtirilganligini xisobga olish.
4. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yer resurslarining vositasi sifatida vazifasini xisobga olish.
5. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning, eng avvalo sugoriladigan yerlarning aloxida muxofaza etilishini, kengaytirib borilishini xamda ulardan qat'iy belgilangan maksadda foydalanishni ta'minlash.

Ko'pchilik agrar-iqtisodchi olimlarning [2,4,6] fikriga ko'ra yer resurslaridan foydalanishni boshqarish ma'lum bir funksiyalar yordamida amalga oshiriladi. Misol uchun, prof. A.S.Chertovskiy va A.K.Bozorovlarning fikriga ko'ra ular kadastr axborot ta'minoti va ikkita kichik tizim : yer munosabatlarini tartibga solish va yerdan foydalanishni boshqarish funksiyalaridan tashkil topadi. Bunda shuni e'tiborga olish kerakki ma'lum bir funksiyalar bir vaqtning o'zida ikkala kichik tizimda xam foydalanilishi mumkin (1-rasm) [3]. Misol uchun, yerdan foydalanishni iqtisodiy boshqaruvi va yerdan foydalanishni samaradorligini baholash funksiyalari.



1-rasm. Yer resurslaridan foydalanishni boshqarish funksiyalari tarkibi

Tizim tarkibiga kiritilgan funksiyalar boshqaruvningsamarasini ta'minlashi uchun ularga aniq vazifalari yuklatilgan. Jumladan, **Yer munosabatlarini tartibga solish funksiyalaritizimida:**

Yer qonunchigini yaratish funksiyasi yerdan foydalanish sohasida yuzaga keladigan yerga oid ijtimoiy munrosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini yaratishni ta'minlaydi.

Yerdan foydalanishni bashoratlash funksiyasiga bo'lgan talab iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarda yer resurslaridan foydalanish zaruriyati bilan izoxlanadi. Ushbu funksiya tabiat va jamiyatning iqtisodiy rivojlanish qonunlariga mos ravishda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va bozor iqtisodiyoti sharoitida yer resurslaridan foydalanish xususiyatlarinixisobga olgan xolda amalga oshiriladi

Yer fondini taqsimlash va qayta taqchimlash - o'zida davlatning uzoq muddatga yer resurslaridan foydalanishga oid davlat siyosatini aks ettirganligi sababli boshqaruvning muxim funksiyalaridan biri xisoblanadi. Kelajakda yer resurslaridan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaraga erishish maqsadida foydalanishni ilmiy bashoratlash uning mazmunini tashkil etadi.



Yerdan foydalanishni boshqarish funksiyalaritizimida:

Yer tuzish - yer rurslaridan foydalanishni boshqarishning muxim funksiyalaridan biri hisoblanadi. Yer tuzish yer resurslaridan samarali foydalanish maqsadida hududlarni tashkil etishga qaratilgan tarkibiga loyiha-qidiruv, s'yomka va izlanish ishlari kiradigan tadbirlar tizimi ekanligidan tashqariyerdan foydalanish tizimining muxim tarkibiy qismi ham hisoblanadi.

Yerga oid nizolarni xal qilish funksiyasi yer resurslaridan foydalanishning muxim funksiyalaridan biri hisoblanadi. Unga bo'lgan ob'ektiv talab yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va yer uchastkalari mulkdorlari tomonidan yerga oid qonunchilik hujjatlarining buzilishi sababli yuzaga keladigan nizolarni xal qilish bilan izoxlanadi.

Yerlarni qayta tiklash funksiyasi yer resurslaridan bevosita ishlab chiqarish jarayonida foydalanuvchi vazirliklar va davlat qo'mitalarining vazifalariga kiradi. Ushbu funksiya yer resurslarini to'liq qayta tiklashning yakuniy bosqichi va iqtisodiy, ijtimoiy va ekologiya sohalarida yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish asosi hisoblanadi.

Yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantirish funksiyasi yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etishlari uchun yerdan foydalanish sub'ektlariga iqtisodiy mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Yerdan foydalanishni iqtisodiy boshqaruv funksiyasi iqtisodiyot tarmoqlari, faoliyat sohalarida, yerdan foydalanish sub'ektlari o'rtasida yer resurslarini oqilona taqsimlash asosida yerdan foydalanish tarkibini optimallashtirish xamda yer resurslaridan oydalanish samaradorligi darajasi, yerlarni qayta tiklash sikli samaradorligi va ipoteka tizimini takomillashtirishni o'z maqsadi qilib qo'yadi.

Yerdan foydalanish samaradorligini baholash funksiyasi tizimli ravishda yechiladigan quyidagi uchta vazifani o'z ichiga oladi: *birinchisi*, yer fondi toifalari, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalar bo'yicha yer resurslarining taqsimlanishini baholash; *ikkinchisi*, yerdan foydalanishdaniqtisodiy va boshqa ko'rinishdagi samara olish nuqtai nazaridan yer resurslaridan bevosita (texnologik) foydalanishni baholash; *uchinchisi*, yer resurslarini qayta tiklash samaradorligini baholash.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Yer resurslarini boshqarish tizimi tarkibi va ularning vazifalari taxlil qilinayotganda uning oddiy tadbirlar majmuyi emas, balki uzviy, yaxlit tizim ekanligi xisobga olinishi kerak.
2. Yer resurslarini boshqarish tizimining samaradorligi na faqat uning funksiyalari samaradorligi oshishi natijasida, balki uning tarkibidagi barcha elementlar to'liq xisobga olingan xolda oshadi. Masalan, yerdan foydalanishni tashkil etish loyixasining samaradorligi, loyiha ishlanmalari ular uchun asos bo'ladigan yer kadastri va boshqa izlanishlar materiallari hamda yerdan foydalanish va muxofaza qilish ustidan davlat nazorati bilan uzviy boglangan xolda amalga oshirilsagina oshadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6024-son 10.07.2020

2.A.R. Bobojonov., Q.R.Rahmonov., A.J. G'ofirov. Yer kadastrini// Darslik. TIMI nashriyoti, 2008. 212 b.

3.A.S.Chertoviskiy, A.K. Bazarov. Sistema zemlepolzovaniya Uzbekistana. Fan.2007, 212 s.

4. Volkov S.N.Zemleustrochtvo//Uchebnik. T 2: Vnutrixozyatstvennoe zemleustroystvo. M.: Kolos, 2001, 648 str.

5. S.Avezbayev, S.N.Volkov. Yer tuzish iqtisodi //Darslik.TIMI, 2016.265

6. Egamova, D.A, Shukurova N.O, Ahmadov B.O (2020). EFFICIENT AND RATIONAL USE OF LAND RESOURCES IS A REQUIREMENT OF THE TIME. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 327-328).

7. Egamova, Dilchehra Adizovna; Bobojonov, Said; Muhamadov, Qamariddin Muxtarovich. "BUXORO VILOYATIDA TUPROQ MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH." Студенческий вестник 18-11 (2021): 92-94

8.Tukhtaeva K. T., Egamova D. A. CHARACTERISTICS OF DESERT-SANDY SOILS OF KANIMEKH DISTRICT //The Way of Science. – 2014. – С. 49.

9.Жураев Т. Х., Эгамова Д. А. ГЕОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ДЛЯ СИМУЛЯЦИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ОБОРАЧИВАНИЯ ПЛАСТА //СОВРЕМЕННЫЕ ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ, ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИННОВАЦИИ. – 2020. – С. 106-109.

10.Egamova Dilchehra Adizovna, Bobojonov Said Utkirovich, & Mukhamadov Kamariddin Mukhtarovich. (2021). IMPROVEMENT OF SOIL RECLAMATION (ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION). Euro-Asia Conferences, 5(1), 285–286.

11.Egamova, D. A., Azimova, S. J., Muxamadov, Q. M., & Bobojonov, S. (2021). LABOR RELATIONS ON THE FARM. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (6-2), 23-26.

12.Tuxtayeva, X. T., Egamova, D. A., & Hamroyeva, B. Z. (2022). The Potential of Ecotourism in the Economic and Social Development of Bukhara Region. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 8, 155-158.

13. Adizovna, E. D., & Farrukhovna, Q. L. (2022). LAND RESOURCES MANAGEMENT ISSUES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(05), 138-141.

14Adizovna, E. D. (2022). ECONOMIC AND ECOLOGICAL ASPECTS OF AGRICULTURAL LAND PROTECTION IN INTER-FARM LAND CREATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 1304-1310. Adizovna, E. D.



(2022). ECONOMIC AND ECOLOGICAL ASPECTS OF AGRICULTURAL LAND PROTECTION IN INTER-FARM LAND CREATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 1304-1310.

15Adizovna, E. D., & Shokirovich, H. S. (2022). Features of Land Monitoring in Agriculture. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(6), 193-196.

16Abdulloyev, A. M., Sattorov, S. Y., Sulaymonov, M. V., Abdualiyeva, S. H., Ochilov, A. B., & Ismatov, T. A. (2022). Foreign Experience in Land Use Management. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.

17Muzaffarovich, A. A., Yarashovich, S. S., & Hamdamovna, A. S. (2022). SUVDAN OQILONA FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI, 911-915.

18Adizovna, E. D., & Nematovich, S. J. (2022). ADVANTAGES OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN GROUND MONITORING. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 1-4.